



O'QUVCHILARNING MA'NAViy-AXLOQiy DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAViy MEZONLARI.

To'yinova Zarina Said qizi

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati

Instituti 4-bosqich 402-guruh talabasi,

e-mail:zarinatoyinova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini baholashning zamonaviy usullari tadqiq etiladi. Maqolada AQSH, Germaniya, Fransiya kabi G'arb davlatlari hamda Yaponiya, Xitoy, Afg'oniston va Eron kabi Sharq mamlakatlarining tarbiya tizimidagi o'ziga xos xususiyatlar, ustuvor tamoyillar va intizom usullari qiyosiy tahlil qilingan. Muallif O'zbekistonning milliy tarbiya tizimidagi "andisha", "hayo", "kattaga hurmat, kichikka izzat" kabi qadriyatlarining o'rnini alohida ta'kidlab, zamonaviy "Tarbiya" fanining o'quvchi shaxsini komil inson qilib shakllantirishdagi ahamiyatini yoritib beradi. Maqola yakunida ma'naviy-axloqiy darajani baholashda nazariy bilimdan amaliyotga o'tish zarurligi bo'yicha xulosalar berilgan.

Аннотация: В данной статье исследуются современные методы оценки духовно-нравственного воспитания учащихся в условиях глобализации и технологического развития. В работе проведен сравнительный анализ особенностей системы воспитания, приоритетных принципов и методов дисциплины таких западных стран, как США, Германия, Франция, а также восточных государств, включая Японию, Китай, Афганистан и Иран. Автор особо подчеркивает роль таких ценностей в национальной системе воспитания



Узбекистана, как «андиша» (совестливость), «хаё» (стыдливость), «уважение к старшим и почтение к младшим», и освещает значение современного предмета «Воспитание» в формировании учащегося как гармонично развитой личности. В завершение статьи представлены выводы о необходимости перехода от теоретических знаний к практике при оценке духовно-нравственного уровня.

Annotation: This article examines modern methods for assessing the spiritual and moral education of students in the context of globalization and rapid technological development. The paper provides a comparative analysis of the educational systems of Western countries (USA, Germany, France, UK) and Eastern countries (Japan, China, Afghanistan, Iran), identifying their priority principles and disciplinary methods. The author emphasizes the unique role of Uzbekistan's national values, such as "andisha", "hayo", respect for elders, and care for the younger generation, while highlighting the significance of the modern "Education" (Tarbiya) subject in fostering a well-rounded personality. The article concludes with insights on the necessity of shifting from theoretical knowledge to practical application in evaluating the spiritual and moral standards of students.

Kalit soʻzlar: Maʼnaviy-axloqiy tarbiya, taʼlim-tarbiya mezonlari, qiyosiy tahlil, Sharq va Gʻarb tarbiyasi, individualizm, jamoaviylik, milliy qadriyatlar, komil inson, "Tarbiya" fani, ijtimoiy masʼuliyat, texnologik qaramlik.

Kirish:

Bugungi rivojlanib borayotgan davrimizda yoshlarning taʼlim-tarbiyasiga boʻlgan eʼtibor tobora kuchayib bormoqda. "Tarbiya" fan sifatida taʼlim tizimiga kirib borishi ham uni taʼlim va tarbiya ajralmas tushunchalar ekanligini koʻrsatadi. Tarbiya jaroyonida maʼnaviy tarbiya muhim oʻrin tutadi. "Maʼnaviy tarbiya – yuksak maʼnaviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh,



jamiyat, millatda jismoniy barkamollik ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushunchadir"¹. "Pedagogika" fanining asoslaridan biri ham tarbiya masalasidir. Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi².

Texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi yosh avlodga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayabdi. Texnikalar asrida yashayotgan bolalarda agressivlik, tajavvuskorlik va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kuchayib bormoqda. Bu jarayonlar faqat bizning yurtimizda emas, balki butun jahonda o'z aksini topmoqda. Texnologiya va internet tarmoqlaridan foydalanish yaxshi, ammo undan noto'g'ri foydalanish jamiyatni tubsizlik sari yetaklashini anglashimiz va yosh avlodga ham anglatishimiz zarur. Mana shu jihatlarning hammasini yaxshi tushunish uchun faqat o'zimizning emas, balki butun Sharq va G'arb tarbiyasi bilan tanishishimiz hamda yosh avlodni ham tanishtirishimiz zarur. Biz ham shu maqsadda G'arb davlatlari tarbiya usullariga nazar tashlasak.

Asosiy qism

AQSHda tarbiya tizimida shaxsiy erkinlik va mustaqillik g'oyalari ilgari suriladi. Amerika tarbiya usulining eng muhim jihatarida biri shundaki, bolalar oy o'tib alohida xonaga chiqariladi. Undan tashqari bolalar kichik ishlarni bajarganligi yoki uy yumushlariga yordam berganligi uchun ham kam miqdorda pul oladi. AQSHda bolalarni urish yoki haqorat qilish mumkin emas. Bu jarayon qonunan ham taqiqlangan. Bola biror yomon ish qilsa, ungga jismoniy jazo o'rniga imtiyozlardan

¹ Toshboyev B., Sadullayev O. Ma'naviy tarbiya jarayonida falsafa ilmining o'rni//Samarqand VPYMO'MM. "BEHBUDIY O'QISHLARI". – Toshkent., 2021. – B.278.

² Nafasov D., Sultanova N. "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi. Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari //”Экономика и социум” №5(120)-2 2024.



mahrum qilishni tanlashadi. Bundan tashqari ota-onalar bolaga biror taqiq qo‘ysa, sababini tushuntirib beradi. Bola ushbu taqiq ustida ota-onasi bilan bahslashishi, o‘z sabablarini keltirishi mumkin. Bu holat esa ota-onaga hurmatsizlik deb qaralmaydi. Ba‘zan bu holatlar haddan tashqari erkinlik va kattalarga bilan orasida masofa hosil qiladi.

Germaniyada ham tarbiya tartib va mustaqillikka asoslanadi. Germaniyada bolaga bog‘cha yoshidanoq o‘zi kiyinishi, o‘z yumushlarini o‘zi bajarishi o‘rgatiladi. Maktablarga ham ular ota-onasiz borishadi, bu ularda mustaqillik ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu yerda qoidalarga qat’iy rioya qilinadi. Uyqu vaqti 20:00 deb belgilandimi, demak, shu vaqtda bolalar uyquga yotadi. Biror narsa mumkin emasligi haqida aytildimi bola unnga so‘zsiz amal qiladi. Bu esa bolalar tarbiyasida qat’iy rejimga amal qilinishidan dalolat beradi. Germaniyada bolalar har qanday ob-havo sharoitida ham o‘ynashi mumkin. Ularga loyda o‘ynashga va daraxtga chiqishga ham taqiq qo‘yilmagan. Nemislar bu jarayon bolalarga dunyoni tanishiga imkon beradi deb hisoblaydi. Bu davlatda bolalar bog‘cha yoshidan boshlab ta’lim olishmaydi. Bu yoshda ular faqat o‘yin va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratadi. Nemislar bolalari bilan juda ochiq va to‘g‘ri gaplashadi. Ota-onalar bolasini asossiz maqtashavermaydi. Biror xatoga yo‘l qo‘ysa, hammasi yaxshi bo‘ladi deb dalda bermaydi. Uning xatosini aniq aytadi. Ota-onalar bolalari kichik vaqtlarida ham uning ortidan yurib, xavfsizligini nazorat qilmaydi. Bola o‘z xatti-harakatlarining oqibatini o‘zi nazorat qilishi kerak deb hisoblashadi.

G‘arb davlatlaridan yana biri Fransiyada ham bola tarbiyasi o‘zgacha. Fransuzlarga e’tibor bersak, ularni go‘zallikni sevuvchi, estetik didni barcha narsadan ustun qo‘yuvchi xalqdir. Ular bolalarni “bolalarni kattalar dunyosiga moslashtirish” san’ati asosida tarbiyalaydi. Fransuzlarda ota-ona bolaning qat’iy chagarasini belgilab beradi. Ammo shu qolip ichida bolalarga erkinlik ham beradi. Bolalar belgilangan qoidalardan chiqmagan holda, xohlagancha o‘ynashi, xohlagancha ijod qilishi mumkin. Fransuz ota-onalari bolani yoshligidan kutishga



o'rgatadi. Bola biror narsa istasa ham, uni hoziroq bajarishi shart emas. Ular kutishni bilishadi. Fransuzlarda ovqatlanish madaniyati milliy udum darajasiga chiqqan. Shu sababli bolalar ham ungga e'tiborli bo'lishini ta'minlaydilar. Fransuzlar bolalarini ko'chalarda baqirib yurishlarini istamaydilar. Ular ko'proq sokinlik tarafdorlaridir. Fransuzlarning tarbiyasidagi muhim jihatlardan biri shuki, ota-onalar bolasi uchun hamma narsadan voz kechmaydi. Ular o'z qiziqishlari va ishlari bilan istaganicha shug'ullanaverishadi.

Yana shunday davlatlardan biri Buyuk Britaniya bo'lib, ular farzandlarini qadimiy an'analarga asoslangan holda tarbiyalaydi. Bu davlatda bolalarga his-tuyg'uga berilmaslik, har qanday holatda ham o'zini yo'qotmaslik o'rgatiladi. Bola yiqilib tushsa, ota-ona uni o'rnidan turishiga yordam bermaydi. Bundan ko'rinadiki, ular bolalariga shikoyat qilmaslikni ham o'rgatadi. Bundan tashqari ular farzandlariga yoshligidan navbatda turish va boshqalarning shaxsiy hududiga daxl qilmaslik o'rgatiladi. Buyuk Britaniya bolalari ham fransuzlarning bolalari kabi qanday ob-havo bo'lishidan qat'iy nazar tashqariga chiqishi mumkin. Ularda tashkil qilingan bog'chalarning ham eng mashhurlari tabiat qo'ynida va daraxtzorlar orasida tashkil qilinganlaridir. Bunday sharoitda ulg'aygan bolalar qiziquvchan va chidamli bo'ladi deb hisoblashadi. Bu davlatda 10 yoshdan oshgan bolalarni mustaqil yashashni o'rganishlari uchun internat maktablarga berishadi. Bu yerda bolalar o'z yumushlarini o'zlari bajarishadi. Bolalarga kichik yoshdan boshlab, dasturxon madaniyatini ham o'rgatishadi. Ularda oddiy ovqatlanish ham ma'lum tartib-qoidalar asosida amalga oshadi. Bu yerda tarbiyaning asosiy qoidasi "Bolalar ko'rib turishi kerak, lekin kattalar orasida gapirmasligi zarur" g'oyasi asosiga quriladi.

Endi tarbiya nazariyasi bo'yicha sharq davlatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda ham bir qancha o'ziga xos jihatlarning guvohi bo'lishimiz mumkin. Tahlilimizni Yaponiyadagi tarbiya tizimidan boshlaymiz. Yaponiyada 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga hech narsa taqiqlanmaydi. Bola nima ish qilsa ham ota-onasi uni koyimaydi. Bu usul orqali ular bolada ota-onaga va dunyoga bo'lgan ishonchini



kuchaytiradi. Bolalar maktabga chiqqach esa hayoti o'zgaradi. Bolalar maktabga chiqqach, u yerda qat'iy intizomga amal qilishadi. Yapon maktablaridagi e'tiborli jihat shuki, u yerda farroshlarning yo'qligi. Bolalar o'z xonalarini va butun maktabni o'zlari tozalashadi. Bolalarga o'z qulayligidan avval atrofdagilarning qulayligini o'ylashi lozim. 15 yoshga to'lgan bolalar esa kattalar bilan teng huquqli deb qaraladi. Yapon onalari va bolalari o'rtasida kuchli aloqa mavjud bo'lib, onalar uzoq vaqt davomida bolalarini o'zlari bilan olib yurishadi. Yapon bolalari shovqin qilarga "shovqin qilma" deyishmaydi, aksincha "shovqin qilsang, atrofdagilar xafa bo'ladi" deb tushuntirishadi. Yaponlar bolalarga nasihatdan ko'ra, o'zlari o'rnak bo'lishni afzal ko'radilar. Yaponlar tarbiyasi asosida "sabr" yotadi. Bolalarga qiyinchiliklarga duch kelganda shikoyat qilmaslik o'rgatiladi.

Endi Xitoyda tarbiyani ko'rib chiqadigan bo'lsak, birinchi ko'zga tashlanadigan narsa bu qat'iy intizom bo'ladi. Xitoyliklar bolalarning kelajagi ularning harakatiga bog'liq deb hisoblaydilar. Shuning uchun bolalar maktabdan keyin ham qo'shimcha to'garak va sport mashg'ulotlariga borishadi. O'yin kulgu uchun deyarli vaqt ajratishmaydi. Xitoylik ota-onalar uchun farzandining baholari juda muhim. Bolaga "sen doimo eng yaxshisi bo'lishing kerak" degan g'oyani ta'kidlaydi. Xitoyliklar tarbiya jarayonida Konfutsiy ta'limotiga asoslanadi. Ungga ko'ra, ota-onaga sadoqat va ularni hurmat qilish – insonning eng oliy burchidir. Ushbu davltda ota-onaning qarori muhokama qilinmaydi. Xitoyliklar bolalariga uzoq vaqt texnikalardan foydalanish va bemaqsad yurishni taqiqlaydilar. Bu davlat tarbiya usulida shaxsiy "men"lik qoralanadi.

Sharqiy mamlakatlardan biri bo'lgan Afg'onistonda tarbiya islomiy qadriyatlar va urug'-aymoqchilik an'anasiga asoslangan holda qurilgan. Afg'onlar o'g'il bolaga tarbiya berishda uni jasur, mehmondo'st va oilasini himoya qila oladigan bo'lib yetishishiga undaydi. Qizlarga tarbiya berishda esa ularning iboli, uy ishlariga usta va sadoqatli bo'lishiga ko'proq e'tibor qaratadi. Afg'on bolalari hayotining ajralmas qismlaridan biri diniy bilim va tarbiyadir. Bolalarga juda erta



yoshdan diniy bilimlar o‘rgatiladi, ularning kundalik hayotining asosini ham diniy qadriyatlar tashkil qiladi. Afg‘om oilalarida ota yoki bobo oila boshlig‘i hisoblanadi. Bu davlatdagi bolalar kattalarning gapiga aralashishi va ularning ko‘ziga tik qarashi hurmatsizlik sanaladi. Afg‘onistonda “men” tushunchasidan ko‘ra “oila” tushunchasi ustun turadi. Bu davlatda mehmondo‘stlik eng qadrlanadigan fazilat hisoblanadi. Bolalarga o‘zidan kattalarga xizmat qilish kerakligi o‘rgatiladi. Bu davlatda iqtisodiy sharoit u qadar yaxshi bo‘lmaganligi uchun bolalarga erta yoshdan mehnatni boshlashadi. Afg‘onistonda tarbiya – bu qadimiy an‘analarni saqlab qolish va uni davom ettirishdir.

Yuqoridagidek islomiy qadriyatlarni saqlab qolgan davlatlardan yana biri Erondir. Eronda tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri xushmuomalalik va kamtarlikdir. Bolalarga kichikligidan kattalarni hurmat qilish, mehmonlarni hurmat qilish kabilar o‘rgatiladi. Bolalarga yoshligidan biror narsani xohlasa ham, darrov “ha” demasligi, avval rad etib, yana taklif qilinsa, qabul qilish tushuntiriladi. Eronliklar adabiyotni sevuvchi xalq hisoblanadi. Shuning uchun bolalarga bog‘cha yoshidanoq shoirlarning baytlari yodlatiladi. Bundan tashqari Eron oilalarida onaga bo‘lgan hurmat juda baland. Ayniqsa, farzandlar onalarini juda qattiq hurmat qilishadi. Eronliklar duo qanchalar muhim ekanligini yaxshi bilishadi va farzandlar biror katta ishni boshlashdan avval, albatta, ota-ona duosi olinadi. Bu davlatda ham kattalarning ko‘ziga tik qarab gapirish va ularning so‘zini bo‘lish tarbiyasizlik deb qaraladi. Eronlik ota-onalar farzandlarining ilmi bo‘lishi tarafdori. Bu xalq ham dunyoviy bilimlarni diniy bilimlar bilan uyg‘un holda tashkil qiladi. Eron tarbiyasi bolani “odobli” qilib yetishtirishga yo‘naltirilgan. Bu yerda bolaning bilimli bo‘lishidan ko‘ra, uning tarbiyasi bo‘lishi muhimroq.

Yuqorida sharq va g‘arb davlatlarining tarbiya usullari va g‘oyalarini ko‘rib keng ko‘lamda ko‘rib o‘tdik. Endi bu jarayanda tushunarli bo‘lishi uchun uni quyidagi jadvalga joylashtiramiz:



DAVLAT	TARBIYA FALSAFASI	ASOSIY TAMOYILLAR	INTIZOM VA JAZO USULI
AQSH	Individualizm	Bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish.	Qo'l ko'tarish mumkin emas, imtiyozlardan mahrum qilish.
Germaniya	Mustaqillik	Qat'iy tartib-qoidalar.	Tushuntirish va mas'uliyatni bolaning o'ziga topshirish.
Fransiya	Kattalar dunyosiga moslashtirish	Sabr qilishni o'rgatish.	Qat'iy chegaralar ichida erkinlik.
B.Britaniya	Vazminlik	His-tuyg'ularni jilovlash.	Qoidalarga so'zsiz itoat qilish.
Yaponiya	Bosqichli tarbiya	5 yoshgacha erkinlik, so'ngra qat'iy intizom	Jamoatchilik fikri va "xafa bo'lish" orqali ta'sir o'tkazish.
Xitoy	Mehnatsevarlik	Qat'iy intizom va chidamlilik	Qat'iy tanqid va yuqori talabchanlik.
Afg'oniston	An'anaviylik	Diniy qadriyatlar va oila sha'ni	Kattalarga mutlaq bo'ysunish.
Eron	Odob-axloq	San'atga qiziqish, xushmuomalalik	Axloqiy o'g'itlar va ota-onasi duosi.



Endi ushbu tarbiya usullari va bizning yutimizdagi tarbiya usullarini tahlil qiladigan bo'lsak, bizda tarbiyaga qadimdan katta e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solgan buyuk buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy vasiyatida shunday yozadi: "Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevanu bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur; bevanlik darbadarlik, asorat faqir va zaruratu xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir"³. Bundan ko'rinadiki, bizda "sharqona odob" va "ijtimoiy tarbiya" uyg'unlikda bolalarga o'rgatiladi. Bizda tarbiya dastlab bolaga "ona alla" si orqali kirib boradi. Shuning uchun tarbiya dastlab, oilada shakllandi. Bizda bolalar oilada ham, jamoat joylarida ham katta yoshli insonlarga hurmatda, kichik yoshlilarga esa izzatda bo'ladi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan davlatlarda "kattalarga hurmat"ni uchratdik, ammo "kichiklarga izzat" tamoyilini uchratmadik. Bizda bolaga ota-ona va boshqa yoshi ulug'lar duosi qanchalik muhim ekanligi eng yoshlik chog'laridanoq o'rgatiladi. Muvaffaqiyatning kaliti ham mana shu kattalarga bo'lgan hurmat va ularning duosida deb tushuntiriladi. G'arb madaniyatiga nazar tashlasak, farzandlar ota-onasidan yosh vaqtida alohida chiqib ketadi va keksayganda ularni e'tiborsiz qoldiradi. Bizda esa ota-ona bolasiga yoshligida qanday mehr-muhabbat bilan qaragan bo'lsa, farzand ham ota-onasiga shunday mehr bilan qaraydi, e'zozlaydi. Shuning uchun bizda oila tarbiyaning ustuni hisoblanadi.

Keyingi bosqichda bolalar sekin-sekin jamiyatga qadam qo'ya boshlaydi. Shu paytdan boshlab uning tarbiyasiga mahalla ham mas'ul hisoblanadi. Ya'ni bolaning xulq-atvoriga qo'ni-qo'shnilar, mahalla oqsoqoli va boshqalar ham e'tibor qaratadi. Bu esa bolada ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi. Mahallada biror to'y-hasham yoki boshqa biror tadbir bo'lsa, yoshlar borib, albatta, yordamlashishi o'rgatiladi. Tarbiyaning bu ko'rinishi ham hech bir millatda ko'zga tashlanmaydi. Qo'ni-

³ Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent, 2022. -B.143.



qo'shnicilik haqida dinimizda ham ancha ma'lumotlar keltirilgan. Mana shu jarayonda ham o'zbek millati tarbiyasida diniy va ijtimoiy bilimlar uyg'unligi ko'zga tashlanadi.

Milliy tarbiyamizning yana bir ko'rinishi mehnatsevarlikdir. Bizning millatda bolalarni kichikligidan mehnatga o'rgatishadi, kasb-hunar o'rganishga yo'naltirishadi. Qadimdan bizda "usta-shogird"lik an'anasi mavjud bo'lgan. Bu an'ana hozirga kelib biroz kamaygan bo'lsa-da butunlay yo'qolib ketmagan. Hozirgi vaqtda bolalar zamonaviy bilimlar bilan birga, mana shunday mehnatlarga ham o'rgatiladi. O'g'il bolalarga, asosan, yuqoridagi an'ana va tomorqa ishlari o'rgatiladi. Qiz bolalar esa ma'lum bir kasbdan tashqari, pazandachilik, chevarlik kabi hunarlarni o'rganishadi. Tarbiyaning bu jihati yoshlarni kelajakda qoqilmasligi uchun yordam beradi.

O'zbek millatida beriladigan tarbiyaning eng muhimi andisha va hayo tushunchalaridir. Xalqimizning milliy qadriyatlarida ham, dinimizda ham mavjud bo'lgan andisha va hayo tushunchasi necha asrlardan buyon o'z qiymatini saqlab kelmoqda. Masalan, oila davrasida ota-ona va farzandlar o'tirilganda odob-axloq chegarasidan chiqmagan holda suhbat olib boriladi. Ba'zi masalalar "pardali" muloqot qilinadi. Bizda ham yoshi ulug'laning ko'ziga tik qaramaslik va ularning so'zini bo'lmaslik tarbiya belisi sanaladi. Undan tashqari bolalar jamoat joylarida o'zini tutishi, baland ovozda gapirmasligi ham mana shu hayo va andishaning samarasidir.

Bolalarga jamoat joylarida yurish madaniyati alohida o'rgatiladi. Yoshlar jamoat joylari va jamoat transportlarida yoshi ulug'larga yoki yosh bolalilarga joy berishadi. Ko'cha-kuyda og'ir yuk bilan ketayotgan insonlarni ko'rishsa, bizning xalqimiz darrov yordamga shoshiladi. Tarbiyaning bu jihatlari boshqa hech bir millatda ko'zga tashlanmaydi. Yuqorida keltirgan jadval bilan mana shu tahlillarni solishtirib chiqadigan bo'lsak, boshqa millatlarda tarbiyaning qaysidir bir shakli



yaqqol ko‘zga tashlanadi. Boshqa shakli esa e‘tibordan chetda qolgan. Ba‘zi bir xalqlarda esa diniy tarbiya ustunlik qilib, ijtimoiy axloq nazardan qochirilgan.

Bizning millatimiz farzandlarga beradigan tarbiya esa har tomonni hisonga oladi. Bu tarbiyaning ichiga ijtimoiy odoblar, oilaviy munosabalar va diniy tarbiya muvozanatni saqlagan holda keltiriladi.

Bugungi kunga kelib esa O‘zbekistonda ta‘lim faqat bilim berish emas, balki “komil inson”ni shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. “Tarbiya” fanining umuta‘lim fanlari qatoriga kirishi esa mana shu maqsadning amalga oshishi uchun ko‘prik vazifasini o‘tamoqda. Chunki yosh avlod jamiyatni, yurtni yuksaltiruvchi omildir. Shuning uchun farzandalar tarbiyasi boshqa sohalar kabi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya negizida tarix, milliylik va azaliy an‘analar yotadi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash lozimki, har bir xalqning tarbiya usuli uning ma‘naviy qiyofasini belgilovchi asosiy vositadir. Globallashuv va texnologiyalar asrida yoshlarning ma‘naviy-axloqiy darajasini baholash mezonlari tubdan o‘zgarib, endilikda baholash shunchaki nazariy bilimlar bilan emas, balki o‘quvchining jamiyatdagi amaliy harakatlari, mas‘uliyatni his qilishi, andishali muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligi orqali o‘lchanmoqda.

G‘arb va Sharq tarbiya tizimlarining har biri o‘ziga xos kuchli jihatlarga ega bo‘lib, G‘arbning shaxsiy mustaqillik va huquqiy onglilik tajribasini Sharqning jamoaviylik, sabr va kattalarga ehtirom tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy komil inson modelini yaratishda muhim poydevor bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston milliy tarbiya tizimi o‘zining ko‘p qirraliligi bilan ajralib turadi. Bizdagi "andisha", "hayo" va "mahalla mas‘uliyati" kabi tushunchalar yoshlarda o‘ziga xos ijtimoiy himoya qobig‘ini hosil qiladi, "Tarbiya" fanining tizimli ravishda o‘qitilishi esa ushbu qadriyatlarni zamonaviy pedagogik metodlar bilan boyitish imkonini beradi.



Yakuniy xulosa shuki, yosh avlodni texnologik qaramlik va axloqiy inqirozlardan himoya qilish uchun ta'lim jarayonida faqatgina milliy qobiq bilan cheklanib qolmasdan, jahonning ilg'or tarbiya metodikalaridan oqilona foydalanish zarur. O'quvchining ma'naviy-axloqiy darajasi uning o'zligini anglashi va o'zga madaniyatlarni hurmat qilgan holda, o'z milliy qadriyatlariga sodiq qolishi bilan belgilanadi. Ushbu muvozanatni saqlash jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omildi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axrorova M. Jadidlar falsafasida komil inson konsepsiyasining ifodalanishi//Samarqand VPYMO'MM. "BEHBUDIY O'QISHLARI". – 5 b.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent, 2022. -B.143.
3. Nafasov D., Sultanova N. "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi. Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari //”Экономика и социум” №5(120)-2 2024.
4. Toshboyev B., Sadullayev O. Ma'naviy tarbiya jarayonida falsafa ilmining o'rni//Samarqand VPYMO'MM. "BEHBUDIY O'QISHLARI". – 4 b.

Internet manbalari:

1. www.ziyouz.com internet sayti.
2. www.wikipedia.uz internet sayti.
3. www.ziyouz.com internet sayti.